UDC: 658.5.011

YASHIL ENERGETIKANI RIVOJLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH MANBALARI.

Radjabova Sarvinoz Alisherovna,
Magistrant
University of Business and Science

Annotatsiya: *Ushbu tezisda qayta tiklanadigan energiya manbalari qanday bo‘lishi va nisbatan ekologik tizimga o‘tish borasida butun dunyoda va O’zbekistonda qanday ishlar amalga oshirilayotgani borasida so‘z yuritiladi.*

Kalit so’zlar: *Qazilma resurslar, ekologiyaga, siyosiy beqarorlik, energiya muqobil manbalari.*

Аннотация: *В данном тезисе рассматривается вопрос о том, какими могут быть возобновляемые источники энергии и что делается во всем мире и в Узбекистане в отношении перехода к относительной экологической системе.*

Ключевые слова: *Ископаемые ресурсы, экология, политическая нестабильность, альтернативные источники энергии.*

Abstract: *This thesis examines the question of what renewable energy sources can be and what is being done around the world and in Uzbekistan regarding the transition to a relative ecological system.*

Keywords: *fossil resources, ecology, political instability, alternative energy sources.*

Kirish

Energiyaning muqobil manbalariga o‘tish – asosiy global masalalardan biridir. Qayta tiklanadigan resurslar qanday bo‘lishi va nisbatan ekologik tizimga o‘tish uchun butun dunyoda qanday ishlar amalga oshirilayotgani borasida qilinayotgan chora-tadbirlar haqida ko’plab ma’lumotlar bor. Qayta tiklanadigan energiya resurslari bugungi kunda dunyodagi elektr energiyasining 26% ni tashkil qiladi, biroq IEA **(Energetika bo‘yicha xalqaro agentlik) ning** ma'lumotlariga ko'ra, uning ulushi 2024-yilga borib 30% ga yetishi kutilmoqda. Tiklanish jarayoni 2019-yilda texnologik xarajatlarning pasayishi va atrof-muhit muammolari tufayli global sekinlashuvdan keyin sodir bo'ldi. Kelajakda qayta tiklanadigan energiya manbalari 2024 yilga kelib dunyoda quyosh quvvati 600 gigavattga (GVt) o'sishi, ya'ni Yaponiyaning o'rnatilgan umumiy elektr quvvatidan deyarli ikki baravar ko'p bo'lishi bashorat qilinmoqda.

Muhokama va natijalar

Qazilma resurslar cheklangan va ularni to‘ldirish imkonsiz. British Petroleum kompaniyasining baholashicha, dunyodagi ko‘mir zahiralari yana yaqin 100 yilga, neft esa – 500 yilga yetadi. Ba’zi ekspertlar bunday bashoratlarni mubolag‘ali deb hisoblashadi, biroq ertami-kechmi odamzod baribir resurslar tanqisligi yoki uning butunlay tugashi muammosi bilan yuzlashadi.

Ekologik zarar. Qazilma boyliklarni qazib olish tabiatga katta zarar yetkazishni taqozo etadi, ko‘pchilik olimlarning fikriga ko‘ra, ulardan foydalanish iqlim o‘zgarishining asosiy sabablaridan biridir.

Xalqaro munosabatlar tizimi hozirgi kunda ko‘p jihatdan qazilma resurslarining mavjudligi hamda ularni sotish yoki sotib olish imkoniyatlariga bog‘liq. Energetika bozoridagi vaziyatdan kelib chiqqan holda global muammolar tizimini sog‘lomlashtirishga – masalan, resurslar sabab kelib chiqadigan nizolar ehtimolini kamaytirgan va energiya tashuvchilar narxini pasaytirishga imkon yaratgan bo‘lardi.

Energiyaning muqobil manbalari – zahiralari tugamaydigan tabiat resurslaridan foydalanish bo‘lishi mumkin. Ushbu resurslardan ko‘pchiligi ancha vaqtlardan beri insonlar tomonidan foydalanib kelinadi, zamonaviy texnologiyalar hamda ilm-fan imkoniyatlarini uyg‘unlashtirgan holda esa muqobil energiya samaradorligi bir necha barobarga o‘sishi mumkin.

Energiyaning muqobil manbalari quyosh, suv, shamol va yerdan chiqadigan issiqlik ko’rinishida ifodalash mumkin.

Quyosh. Yer yuziga yil davomida tushadigan quyosh energiyasi hajmi bizning ehtiyojimizdan o‘n ming marta ko‘p. Fotoelementlar, quyosh elektrostansiyalari va bulardan tashqari, Quyosh energiyasi avtomobil va mexanizmlarni quvvatlantirishda ham foydalanilishi mumkin, hozirgi kunda esa quyosh batareyalarida ishlaydigan uchuvchisiz samolyotlarni yo‘lga qo‘yish ustida izlanishlar olib borilmoqda. Gelioenergetikaning ehtimoliy kamchiliklari qatorida infratuzilma bahosi hamda ob-havo iqlimi sharoitlariga bog‘liqlik turibdi.

Suv. Gidroenergetika dunyoning ko‘plab mamlakatlarida yaxshi rivojlangan va keng tarqalgan. Masalan, mikro va mini-GESlar (an’anaviy yirik GES lar ekologik xavf bilan bog‘liq: ularning qurilishi va ishlashi yaqin hududlar ekotizimini jiddiy izdan chiqarishi va qishloq xo‘jaligiga talafot yetkazishi mumkin). Shu bilan birga yerosti oqimlarining imkoniyatlari ham faol o‘rganilmoqda.

Shamol. Shamolning kinetik energiyasi potensiali Yerning barcha suv havzalarining gidroenergetik potensialidan yuz baravar yuqori. Dunyoda qadim zamonlardan beri turli xil shamol qurilmalari (masalan, tegirmonlar) dan foydalanilgan bo‘lsa-da, so‘nggi bir necha yil ichida shamol energetikasi sohasida katta yutuqlarga erishildi va endi uni global atom energiyasi bilan taqqoslash mumkin.

Yerdan chiqadigan issiqlik. Geotermal energetika sayyoramiz qa’rida ishlab chiqariladigan issiqlikdan foydalanish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, vulqon faolligi yuqori va ko‘p miqdordagi issiqlik manbalariga ega bo‘lgan hududlarda dolzarb sanaladi. Geotermal energetikaning afzalligi – iqlimga va kun vaqtiga bog‘liq emasligidir (gelio va shamol energetikasidan farqli o‘laroq). Bioyoqilg‘i insonlar tomonidan ming yillar davomida foydalanib kelinmoqda (bioyoqilg‘ining eng qadimgi turi o‘tin hisoblanadi), ammo uning barcha turlari ham qayta tiklanavermaydi. Bioenergetikaning eng istiqbolli yo‘nalishlari orasiga suv o‘tlaridan foydalanish kiradi. O‘simlik va hayvonot chiqindilarini qayta ishlash esa nafaqat ularni utilizatsiya qilish muammosini hal etishga, balki bu jarayonda energiya ishlab chiqarish imkonini ham beradi.

Bugungi kunda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo‘yicha Yaponiya, Xitoy, AQSH, Germaniya, Ispaniya va Hindiston yetakchi davlatlar sirasiga kiradi. 2023 yilda Germaniya va Xitoyda qayta tiklanadigan energiya manbalari ishlab chiqargan elektr

energiyasi jami quvvatning 50 foizidan oshgan. Shuningdek, tahlillarga ko‘ra, 2050 yilda quyosh foto elektr stansiyalari global miqyosda yangi elektr energiyasining eng arzon manbai bo‘ladi. Barcha davlatlar 100 foiz “yashil” energiyaga o‘tishni reja qilgan. Demak, “yashil” energiyadan foydalanish biz uchun energiya barqarorligiga erishish va ekologiya muammosini hal qilish imkonini beradi.

Xulosa

Yurtimizda so‘nggi yillarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish borasida bir qator qonun va qarorlar qabul qilingan va ularning ijrosini ta’minlash bo‘yicha amaliy ishlar ketmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 fevraldagi “2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini ta’kidlash zarur. Shuningdek, Prezidentimizning PF-220-sonli farmoni va PQ-57-sonli va PQ-156-sonli qarorlarida bir qator imtiyozlar berilgan. Xususan, quyosh yoki shamol elektr stansiyasini o‘rnatganlik uchun BHM ning 7 barobaridan 50 barobarigacha kompensatsiyalar beriladi. 2023 yil 1 apreldan boshlab umumiy quvvati 100 kVtgacha bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o‘rnatgan jismoniy va yuridik shaxslar ushbu qurilmalar bo‘yicha mol-mulk solig‘i, qurilmalar bilan band bo‘lgan uchastkalar bo‘yicha jismoniy va yuridik shaxslar 3 yildan 10 yilgacha yer solig‘idan ozod etiladi. Bundan tashqari, hozirda banklarda quyosh panellari va suv isitkichlarini o‘rnatishni moliyalashtirish uchun imtiyozli “Yashil energiya” krediti tashkil etilgan.“O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga asosan 2030 yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatini 25 ming MVtga hamda jami iste’moldagi ulushini 40 foizga yetkazish reja qilingan. Mamlakatimizda yilning 320 kuni quyoshlidir, bu esa muqobil energiya manbalarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratib beradi.

Manbalar ro’yxati:

1. Vapayev M., Shomurodov S., Patxullayeva M. Yashil energetika kelajak energetikasi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.
2. Тошбоева Р.С. (2020). Экологизация экономики Узбекистана: правовой аспект совершенствования инвестирования. журнал правовых исследований
3. Karabanov S.M., Bezrukix P.P., Gordienko G.V., Kuropov M.V. Mamlakatning energiya balansida qayta tiklanadigan Energiya // Muqobil energiya va ekologiya.2010 yil. №2.
4. Jamoliddinovic, U. B. . (2022). Origins, Dynamics and Logics Bologna Process. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 5, 239–245. Retrieved from https://emjms.academicjournal.io/index.php/emjms/article/view/254
5. Ryabov A.V. Shamol energiyasi yangi yo’nalish sifatida ko’p qavatli binolarni me’moriy shakllantirishda // Muqobil energiya va ekologiya.2011 yil. №1.

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHGA ERISHISHDA “YASHIL” IQTISODIYOTNING AHAMIYATI

Shomirzayev Abdug‘affor Abdujabbor o‘g‘li
Termiz davlat universiteti
Iqtisodiyot va turizm fakulteti
Raqamli iqtisodiyot, biznes boshqaruvi va
ekonometrika kafedrasi tayanch doktoranti